

**TILSHUNOS OLIMLARNING FRAZEO-SEMANTIK MAYDON
MUAMMOSINI O'RGANISHDA IKKI ASOSIY YO'NALISHNI MAVJUDLIGI.**

O.T.Vositov¹

¹ *O'qituvchi, Andijon davlat chet tillari instituti*
otabekvositov55@gmail.com

**MAQOLA
MA'LUMOTI**

MAQOLA TARIXI:

Received: 26.11.2024

Revised: 27.11.2024

Accepted: 28.11.2024

ANNOTATSIYA:

Mazkur maqolada dunyo tilshunoslari tomonidan tilning sistemaviy tabiatni, til va nutqning o'zaro farqlanishi, lingvistik birliklarni mazmuniy semantik maydonlarga bo'lib o'rganish kabi masalalar ko'rib chiqiladi.

KALIT SO'ZLAR:

*frazeologik birlik,
substansiya, frazeo-
semantik maydon, maydon
nazaryasi.*

KIRISH. Atrofimizni o'rab turgan olam tizimlilik xarakteriga ega. U qismlarining o'zaro bir-birini taqozo etuvchi shartlangan munosabatdan tashkil topgan butunlikdir. Tashqi olamdagи voqeа-hodisalar, obyektiv borliq inson ongida turlichа aks etadi. Olamning inson ongida aks etishi uning manzarasi sanaladi. Shunga ko'ra olamning mifologik, diniy, ilmiy, lisoniy manzaralari tushunchalari maydonga keldi. Olamning lisoniy manzarasi olamning til orqali ifodalanishi demakdir. Til ongda aks etgan obyektiv olamning ifodalovchisi ekan, demak, u ham sistemaviylik xususiyatiga egadir. Tilning ana shunday sistemaviy tabiatni . F. de Sossyur lingvistik belgining ikki tomonlama mohiyatga ega ekanligini, u ifodalovchi va ifodalanmish munosabatidan tashkil topgan butunlik ekanligini ko'rsatib berdi. Lingvistik birliklarni mazmuniy semantik maydonlarga bo'lib o'rganish ham semantikaning bir yo'nalishi sanaladi. Lingvistik semantikaning struktur-semantika, konseptual semantika kabi yo'nalishlari mavjudligi til birliklarini maydon asosida o'rganish uchun ko'mak beradi. F. de Sossyur diqqatini jalb etdi va u jahon tilshunosligida ilk bor substansiya bilan shaklni ajratgan holda til substansiya emas, balki sof shakldir, degan g'oyani olg'a surdi.[1]

Bu bilan til va nutqning o‘zaro farqlanishiga, tilning belgilar sistemasi ekanligiga asos soldi. F. de Sossyur lingvistik belgining ikki tomonlama mohiyatga ega ekanligini, u ifodalovchi va ifodalanmish munosabatidan tashkil topgan butunlik ekanligini ko‘rsatib berdi. Lingvistik birliklarni mazmuniy semantik maydonlarga bo‘lib o‘rganish ham semantikaning bir yo‘nalishi sanaladi. Lingvistik semantikaning struktur-semantika, konseptual semantika kabi yo‘nalishlari mavjudligi til birliklarini maydon asosida o‘rganish uchun ko‘mak beradi.

Til haqidagi fanda til unsurlarini semantik maydon doirasida o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlarning aksariyat ko‘pchiligi, odatda, leksik material asosida bajarilgan.

Maydon nazariyasining leksik material asosida o‘rganilishi ko‘plab jahon hamda o‘zbek tilshunoslari diqqat markazidan o‘rin olgan. Jumladan, G‘arbiy Yevropa va AQSh tilshunoslaridan C.Goddar, J.J.Katz, J. Lyons; rus tilshunosligida V.L.Arhangelskiy, E.A.Nojin, A.V.Kunin, L..A.Butareva, V.F.Sknar, L.I.Stishkova; o‘zbek tilshunoslaridan A.Nurmonov, A.Sh.Sobirov, Sh.M.Iskandarov, M.A.Abduvaliyev kabilarning ishlari maydon nazariyasi bilan bog‘liq.

Frazeologik birliklarni semantik maydon usuli orqali tadqiq qilish hozirgi zamon tilshunosligining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi, bu muammo frazeologiyaning lingvistik fan sifatida rivojlanishi sababli kun tartibiga qo‘yilgan.

Sh.M.Iskandarova leksikani mazmuniy maydon asosida tadqiq qilgan.[2] Olima o‘z tadqiqotida maydon nazariyasi M.Abduvaliyev tomonidan birmuncha yoritilgan bo‘lsa-da, u faqatgina sintaktik sathning to‘sqsizlik kategoriyasi yuzasidan tadqiq etganligini, T.Mirzaqulov esa funksional-semantik maydonlarning ayrim morfemikaga doir xususiyatlariga to‘xtalganligini ta’kidlaydi.[3]

A.Sh.Sobirov o‘zbek tili leksikasini semantik (tushuncha) maydoni asosida o‘rganish tilimizga sistem-struktur metodlarning kirib kelishiga borib taqaladi, deb mazkur yo‘nalish bo‘yicha bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini shartli ravishda 1) sistem tilshunoslik va sistem leksikologiyaning umumiyligi nazariyalariga bag‘ishlangan, 2) so‘zlarning shakl va munosabatlarini tadqiq qilish asosida lug‘atlar va glossariylar yaratish, 3) semantik maydon nazariyasi asosida sohalararo alohida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish kabi uchta guruhga bo‘ladi.[4]

Hozirgi kunda tilshunoslikda frazeo-semantik maydonni o‘rganishda (tadqiq qilishda) ikkita asosiy yo‘nalish mavjud.

Birinchi yo‘nalish vakillari frazeologik birliklar alohida frazeo-semantik maydonni tashkil qiladi, ayni paytda ikkinchi yo‘nalish tarafdarlari esa leksik birliklar va FBlar bitta frazeologik maydonning a’zolari bo‘lishlari mumkin, degan fikrga qo‘shiladilar.

Birinchi yo‘nalish yo‘lida olib borilgan tadqiqotlarga L.A.Butareva, V.F.Sknar A.I.Chernaya, L.I.Stishkova, V.F.Donskoy va boshqa tilshunoslarning tadqiqotlarini sanab o‘tish mumkin.

L.A.Butarevaning dissertatsiyasida fe’lli-otli barqaror so‘z birikmalarining “bermoq” fe’li bilan rus, ukrain va belorus tillaridagi qiyosiy tavsifi berilgan. [5]

Ushbu ishda biz uchun shu narsa alohida qiziqish kasb etadiki, muallif “bermoq” fe’li bilan fe’l-otli birikmalarda so‘zlarning ikkita asosiy kategoriyalarini: abstrakt va konkret (mavhum va aniq) otlarni tahlil qiladi.

Uchala til uchun bir xil qonuniyat qayd qilindi: abstrakt otlar “bermoq” fe’li bilan fe’l-otli birikmalarni hosil qilishda konkret ottlarga qaraganda ko‘proq qo‘llaniladi. Qarab chiqiliyotgan fe’lli-otli birikmalarni hosil qilishda, umumiy qoida bo‘yicha “oddiy” so‘zlar ishlatiladi, alohida qayd qilingan leksemalarga kelsak, ular tahlil qilinayotgan fe’l-otli o‘ramlarda juda kam darajada qo‘llaniladi.

F.Sknar tadqiqotining vazifasi ingliz tilidagi nominativ va nominativ-kommunikativ fe’lli somatik frazeologizmlar guruhini ukrain tilining funksional va struktur jihatdan bir tipdagи birliklar bilan taqqoslashdan iborat edi. [6]

Ishda taqqoslanayotgan frazeologik birliklarning semantikasi borasida bir qator kuzatishlar amalga oshirilgan. Bizga V.F.Sknarning “ikkala tilda FBlarning ko‘pchiligi alohida barqarorlik, ko‘p ma’nolilik hamda yuqori chastotalik bilan xarakterlanadigan leksik somatizmlar va eng qadimgi kelib chiqishdagi hamma yerda qo‘llaniladigan fe’llarning azaldan qolib kelgan leksikasi atrofida to‘planadilar” degan xulosasi, yana, shuningdek, qarab chiqilayotgan tillar frazeologik birliklarning semantikasi frazeologik birlikning semantik markazi bo‘lib chiquvchi somatik komponentning leksik-semantik potensiali bilan munosabatdoshligi haqidagi xulosasi muhim sanaladi

Mazkur tadqiqot ishida frazeologik birliklarni ularning semantik-stilistik o‘ziga xos xarakteri nuqtayi nazaridan, frazeo-semantik maydon strukturasini o‘z mutaxassisligini leksik birliklarning semantik guruhlariga nisbatan qarab chiqish, yana, shuningdek, ajratib ko‘rsatilayotgan semantik maydon ichidagi birliklar o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlashdan iborat bo‘ldi.

Olib borilgan tadqiqot natijasi frazeologik birliklarning tizimliligi variantlilik, sinonimik va antonimik semantik munosabatlarda namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi.

L.I.Stishkova hozirgi ingliz tili frazeologiyasi tizimliligining xususiyatlaridan bo‘lgan – sinonimik-antonimik munosabatlarni o‘rganish uchun semantik maydon metodini qo‘lladi. Ishda tadqiq qilinayotgan frazeologik birliklar o‘z taraqqiyotining barcha bosqichlarida variantlilik, sinonimiya, antonimiya va polisemianing barqaror munosabatlari bilan xarakterlanadigan mikrotizimni ifoda qiladi. frazeologik birliklarning tahlili natijasida shu haqida ma’lumot olindiki, tadqiq qilingan o‘zgarishlar tartibga solingan, tizimli xarakterga ega.[7]

Sanab o‘tilgan barcha tadqiqotlar frazeologik materialni maydonga oid o‘rganishning mahsulorligini ko‘rsatdi, chunki frazeologik birlik ma’nosining o‘ziga xosligi uni boshqa semantik yaqin frazeologik birliklar bilan taqqoslashda eng yaxshi tarzda ochiladi. Bunday taqqoslash uchun semantik maydon eng qulay sharoitlarni tug‘diradi.

Frazeo-semantik maydonni o‘rganishdagi ikkinchi yo‘nalish tarafdorlarining nuqtayi nazari E.A.Nojin tomonidan bayon qilingan.[8] Bu xususida u mana shunday yozadi: “Taxmin qilish mumkinki, leksika va frazeologianing semantik guruhlari “birga mavjud bo‘ladi”; ya’ni umumiyl tushunchalarning aksariyat ko‘pchiligi bilan ham leksikaning, ham frazeologianing ma’lum doiralari bir-biriga aloqador bo‘ladi. Buning oqibatida leksik-frazeologik-semantik maydonlarni tuzish mutlaqo mumkin bo‘ladi”.

Ushbu yo‘nalish doirasida bajarilgan ishlar qatoriga M.I.Semkoning hozirgi ingliz tili materiali asosida “deception” tushunchasi bilan bog‘liq leksik-frazeologik maydonni o‘rganishga bag‘ishlangan dissertatsiyasini kiritish mumkin.[9]

Ko‘rsatilgan ishda muallif tomonidan bitta semantik maydon doirasida, bitta paradigmaning a’zolari sifatida “deception” tushunchasi bilan bog‘liq leksik va frazeologik birliklarni ko‘rib chiqishga harakat qilingan, bu so‘zning va frazeologik birlikning semantik hajmini taqqoslashga, ular o‘rtasidagi aynan bir xillikni va farqlarni ko‘rsatishga hamda frazeologik ma’nuning o‘ziga xos xususiyatlarini leksik ma’noga nisbatan aniqlashga imkon berdi.

Natijada M.I.Semko shunday xulosaga keladiki, “ko‘p hollarda so‘z va frazeologik birlik semantik tomonidan boshqa-boshqa birliklardir va ular o‘rtasidagi farq faqat bu birliklarning konnotativ jihat bilan emas, balki denotativ jihatiga bog‘liqdir”.

Frazeologik birliklarni leksik-frazeologik maydon tarkibida o‘rganish, umuman olganda, frazeologik birliklar tadqiqotida istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

Yuqoridagi aytilgan fikrlarga ko‘ra shuni aytish mumkinki, frazeologik birliklar alohida frazeo-semantik maydonni tashkil qiladi, deb hisoblovchi birinchi yo‘nalish tadqiqotchilarining nuqtayi nazari ancha sermahsul ko‘rinadi.

Frazeologik birliklarni o‘rganishga bunday yondashuvning mahsuldorligi shundan iboratki, u so‘zga qaraganda FBning o‘ziga xosligini tan olishga quriladi.

Aynan frazeologik birlikning til birliklari sifatidagi o‘ziga xosligi sababli, ularning semantikasining kengligi, obrazliligi sababli ularda ma’noning konnotativ jihatni denotativ jihatidan ustun kelishi sababli, frazeologik birlik va leksemalarni, bizning fikrimizcha, har xil maydonlarning elementlari sifatida baholash kerak bo‘ladi.

Tadqiqotchilarning yuqorida sanab o‘tilgan ishlarining nomlaridan frazeo-semantik maydonni o‘rganishga turlicha yondashuvlar haqida xulosa chiqarish mumkin.

Tadqiqotning ushbu yo‘nalishini tanlashda biz V.L.Arhangelskiyning quyidagi mulohazasiga (fikriga) tayandik: [10]“ frazeologik birliklarning tub leksemalar asosida hosil qilinishini o‘rganishda hal qilinishi konkret monografik tadqiqotlarning vazifasini tashkil qiladigan muammolar, masalan, frazeologik birliklarni yasashda bir guruh so‘zlarning mahsuldorligi va boshqa guruh so‘zlarining mahsuldor emasligi haqidagi masala yuzaga keladi”

Frazeologik birliklarni hosil qilishda so‘zlar guruhining mahsuldorligini o‘rganishning muhimligi haqidagi e’tirofdan kelib chiqib, frazeologik birliklarni hosil qilishda leksik-semantik guruh a’zolarining faolligini tadqiqotning mustaqil obyekti sifatida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq ko‘rinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Соссюр Ф. де. Труды по языкоznанию. – Москва: Наука, 1977. – С. 53.
2. Искандарова Ш.М. Лексикани мазмуний майдон асосида ўрганиш муаммолари. – Тошкент: Фан, 1998. – 52 б.
3. Абдувалиев М. Тўсиқсизлик майдони ва уни ташкил этувчи синтактик бирликлар / Ўзбек тили ва адабиёти, 1988, №4. – Б. 62-66
4. Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси томойили асосида тадқиқ этиш. – Тошкент: Маънавият, 2004. – Б. 33.
5. Бутарева Л.А. Устойчивые словесные комплексы типа “даты-имя существительное (с предлогом и без предлога)” в русском языке (сравнительно с украинским и белорусским): Автореф. дисс...канд.филол.наук. – Самарканд, 1974. – С. 11.
6. Скнар В.Ф. Глагольные соматические фразеологизмы современного английского языка (в сопоставлении с однотипными единицами украинского языка): Автореф.дисс...канд.филол.наук. – Нежин, 1978. – 25 с

-
7. Стишкова Л.И. Синонимико-антонимические отношения во фразеологии современного английского языка. Дисс...канд.филол.наук. – Л., 1976. – С. 14.
 8. Ножин Е.А. Англо-русский фразеологический словарь по семантическим группам. – В кн.: Иностранные языки. Сборник статей № 2, ВИИЯ, - М.,1966. – С. 117.
 9. Семко М.И. Семасиологическое исследование лексико-фразеологического поля, связанного с понятием “deception” (на материале английских публицистических текстов): Дисс...канд.филол.наук. – М., 1974. – 227 с.
 10. Архангельский В.Л. Устойчивые фразы в современном русском языке. – Ростов н-Д.: Изд-во Рост.ун-та, 1964. – С. 64.

